

## **Boshqarma faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va funksiyalari**

Quyidagilar boshqarma faoliyatining asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi:

- a) ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan Jamiyat tarkibidagi korxonalar (keyingi matnlarda filial) o‘rtasida tasdiqlangan jadval bo‘yicha suyultirilgan gaz uchun hamda tashish uchun vagon-tsisternalarga shartnoma tuzishni tashkillashtirish;
- b) ishlab chiqaruvchi korxonalardan tasdiqlangan jadval bo‘yicha suyultirilgan gaz hajmini avtsisterna va vagon-tsisternalarda gaz to‘ldirish stansiyalari va gaz to‘ldirish punktlariga (keyingi matnlarda GTS va GTP) to‘liq hamda o‘z muddatida yetkazib berishni tashkillashtirish;
- v) ishlab chiqaruvchi korxonalardan avtsisterna va vagon-tsisternalarga yuklangan suyultirilgan gazni yo‘ldagi harakatini GPS hamda temir yo‘l kuzatuvchi orqali GTS va GTPlarga yetib borishini nazorat qilish;
- g) maishiy gaz ballonlari tashuvchi avtotransport vositalari ishini tashkillashtirish hamda GTS va GTPlardan manzilga yetib borishidagi harakatini GPS kuzatuvchi orqali tahlil etish va nazorat qilish.

Boshqarma faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini bajarish uchun quyidagi asosiy funksiyalarni amalga oshiradi:

### **Ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan filiallar o‘rtasida tasdiqlangan jadval bo‘yicha suyultirilgan gaz uchun hamda tashish uchun vagon-tsisternalarga shartnoma tuzishni tashkillashtirish yo‘nalishi bo‘yicha:**

- a) tasdiqlangan jadval bo‘yicha filiallar bilan ishlab chiqaruvchi korxonalar o‘rtasida suyultirilgan gaz uchun hamda tashish uchun vagon-tsisternalarga shartnoma tuzishni tashkillashtirish;
- b) “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ va filiallar o‘rtasida temir yo‘lda vagon-tsisternalarni tashish hamda ko‘rsatiladigan xizmatlar bo‘yicha shartnomalar tuzishni tashkillashtirish;
- v) suyultirilgan gaz hajmini ishlab chiqaruvchi korxonalardan tashish uchun oylik va yillik tasdiqlangan jadval asosida avtsisterna va vagon-tsisternalarga ehtiyoj hisob-kitobini ishlab chiqish;
- g) ishlab chiqaruvchi korxonalardan tasdiqlangan jadval asosida suyultirilgan gaz yuklanishini tashkillashtirish.

### **Ishlab chiqaruvchi korxonalardan tasdiqlangan jadval bo‘yicha suyultirilgan gaz hajmini avtsisterna va vagon-tsisternalarda GTS va GTPlariga to‘liq hajmda hamda o‘z muddatida yetkazib berishni tashkillashtirish yo‘nalishi bo‘yicha:**

- a) ishlab chiqarish korxonalaridan avtotransport vositalariga yuklangan suyultirilgan gazni belgilangan marshrut bo‘yicha yo‘ldagi harakati hamda GTS va GTPlarga to‘liq hajm hamda muddatida yetkazilishini nazorat qilish;
- b) “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ bilan birgalikda vagon-tsisternalarda yuklangan suyultirilgan gazni muddatida yetkazish ishlarini tashkillashtirish;
- v) filiallar tomonidan tasdiqlangan jadval bo‘yicha suyultirilgan gazni ishlab chiqaruvchi korxonalardan o‘lmayotganlarini to‘liq yuklanishi uchun qo‘shimcha

chora-tadbir belgilash va bajarilishini tashkillashtirish;  
g) filiallari tomonidan mavjud avtotransport vositalari orqali suyultirilgan gaz tashishda ulardan samarali va to'liq foydalanish ishlarini tashkillashtirish.

**Ishlab chiqaruvchi korxonalaridan avtsisterna va vagon-tsisternalarga yuklangan suyultirilgan gazni yo'ldagi harakatini GPS hamda temir yo'l kuzatuv orqali GTS va GTPlargacha yetib borishini nazorat qilish yo'nalishi bo'yicha:**

a) ishlab chiqaruvchi korxonalaridan avtsisternalarga yuklangan suyultirilgan gazni muhrlanishi (plomba) va tashishda GTS va GTPlargacha yetib borish jarayonida yo'ldagi harakatini GPS orqali tahlil qilish hamda topshirish ishlarini tashkil etish;  
b) ishlab chiqaruvchi korxonalaridan vagon-tsisternalarga yuklangan suyultirilgan gazni tashishda temir yo'l kuzatuv orqali GTS va GTPlargacha o'z muddatida yetib borishini nazorat qilish;  
v) GTS va GTPlarga yetkazib berilgan suyultirilgan gazni soz va but holatda yetib kelishi hamda plombalarni buzilmasdan kelganini nazorat qilish;  
d) GTS va GTPlarga yetib kelgan transport vositalarini texnologik me'yordan ortiq turib qolmasligini nazorat qilish;  
e) har oy yakuni bo'yicha yuklangan suyultirilgan gaz to'g'risida ma'lumotni filiallardan olish, tahlil qilish va umumlashtirish;  
j) suyultirilgan gaz tashish tizimini yaxshilash bo'yicha innovatsion texnologiyalarni joriy etish yuzasidan takliflar tayyorlash.

**Maishiy gaz ballonlari tashuvchi avtotransport vositalarini texnik holati nazorat qilish.** Shuningdek, avtotransport vositalarida yoqilgi-moylash mahsulotlaridan oqilona foydalanilishini, yo'l varaqalarini talab darajasida to'ldirilishini nazorat qilish.

**Filialning mas'ul xodimlari ishtirokida ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan yuklangan suyultirilgan gazni qabul qilish hamda GTS va GTPlarga, aholi iste'molchilariga yetkazish jarayoni bo'yicha seminarlar o'tkazilishini tashkil etish.**

O'z yo'nalishi bo'yicha mavjud muammolarni bartaraf etish hamda yechimi bo'yicha rahbariyatga takliflar kiritish.  
Boshqarmaga kelgan topshiriqlar, xat, ariza va murojaatlarni ijrosini o'z muddatida ta'minlash.

Tizim korxonalarining ish faoliyatini joyiga chiqqan holda yo'nalish bo'yicha tahlil qilish va amaliy yordam ko'rsatish.